

**ABDULLA AVLONIY IJODINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR**

Mashhura KADIROVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi
kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)*

Shirin ABDUMUTALOVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878260>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Avloniy hayoti va ijodining maktab adabiy ta’limida tutgan o‘rni, uning asarlarini o‘quvchilarga o‘rgatishdagi metodik yondashuvlar hamda tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, Avloniy ijodining hozirgi ta’lim jarayonidagi dolzarbligi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali o‘qitishning samarali usullari yoritilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** adabiyot, ma’rifatparvarlik, adabiy ta’lim, metodika, integratsiya, tarbiya.*

XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ko‘plab ziyolilar kabi, Abdulla Avloniy ham o‘zining butun umrini xalqni ilmga chorlash, ma’rifat bilan jamiyatni uyg‘otish, adabiyot va axloq orqali millatni tarbiyalash ishlariga bag‘ishlagan buyuk shaxsdir. U ma’rifatparvarlik g‘oyalari orqali o‘zbek xalqining ongini uyg‘otgan, milliy adabiyotni yangi bosqichga olib chiqqan.

Avloniy ijodi g‘oyaviy-badiiy jihatdan chuqur, adabiy-estetik tomondan boy bo‘lib, bolalar va o‘smirlar uchun o‘ziga xos hayotiy maktab hisoblanadi. Ayniqsa, uning asarlarida milliy o‘zlikni anglash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ilmga rag‘bat uyg‘otish, vatanparvarlik ruhini tarbiyalash kabi yuksak g‘oyalar mujassam.

Masalan, “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida muallif yosh avlodni bilimli, halol, odobli, fidoyi bo‘lishga undaydi. U “ilm – najot, jaholat – halokat” degan g‘oyani asar markaziga qo‘yadi.

Avloniy “Adabiyot inson qalbini tarbiyalaydi” degan fikrni ilgari suradi. Shunday ekan, u asarlarida badiiy vositalar orqali tarbiya vositasini ustalik bilan uyg‘unlashtiradi. Bu esa uni maktab adabiy ta’limida muhim shaxsiyatga aylantiradi.

Avloniy asarlarini o‘qitishda quyidagi metodlar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq:

a) Muammoli o‘qitish metodi:

– O‘quvchilarni asar asosida mustaqil fikrlashga undash, savollar orqali munozara olib borish.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Masalan: “Avloniy nega axloqni ilm bilan bog‘laydi?”, “Bugungi kunda Avloniy aytgan illatlar jamiyatimizda mavjudmi?” kabi savollar yordamida muammoli vaziyat yaratish.

b) Interaktiv usullar:

– “Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “Insert texnologiyasi” kabi usullar orqali o‘quvchilarni faollashtirish, tahliliy tafakkurni rivojlantirish.

c) Rol o‘ynash, sahnalashtirish:

– Asardagi muhim epizodlarni rollarga ajratib, kichik spektakllar tashkil etish orqali o‘quvchilarda obrazli fikrlash, nutq madaniyati, jamoaviy ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

d) Integratsion yondashuv:

– Avloniy ijodini tarix, geografiya, ona tili, axloqiy tarbiya fanlari bilan bog‘lab o‘rganish.

Masalan: Avloniy asarlarida keltirilgan tarixiy shaxslar, davr voqealarini tarix fani bilan uyg‘unlashtirish.

Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘zbek ma’rifatparvar adabiyotining durdona namunalaridan biri bo‘lib, o‘zining kuchli tarbiyaviy, axloqiy, milliy va ma’naviy mazmuni bilan maktab adabiy ta’limida alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarni o‘rganish o‘quvchilarni shaxsiy kamolot sari yetaklaydigan kuchli g‘oyaviy manbadir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari 1913-yilda nashr etilgan bo‘lib, o‘z zamonasida maktab o‘quvchilari uchun axloqiy darslik sifatida yozilgan. Avloniy ushbu kitob orqali yosh avlodga halollik va poklik, mehnatsevarlik, fidoiylik, sabr-toqat, vatanparvarlik va millatga sadoqat, ilm-fan va ma’rifatning kuchi, odob-axloq me’yorlariga amal qilishkabi g‘oyalarni singdirishga intilgan.

Mazkur asar o‘quvchilarda axloqiy tafakkur, hayotiy qarashlar, insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlarga nisbatan e’tibor va hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Masalan, quyidagi mavzular asosida darslar tashkil etilishi mumkin:

“Axloq nima va nega u kerak?”

“Ilm va jaholat: Avloniy nigohida”

“Halollik – eng yuksak fazilat”

“Vatanparvarlik – iymondandir”

Bunday mavzular asosida munozarali darslar, kompozitsiya ishlari, sahnalashtirilgan chiqishlar, she’r tahlillari o‘tkazilishi o‘quvchilarni faol o‘quvchilarga aylantiradi. Asarda berilgan hikmatli so‘zlar, masallar, voqealar va

hayotiy misollar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, ularning axloqiy fazilatlarini shakllanadi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini o‘rganishda an’anaviy yondashuv bilan cheklanmaslik, aksincha, interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, ularning tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va hayotiy holatlarga mos qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Quyidagi metodlar ta’lim samaradorligini oshirishda ayniqsa muhim hisoblanadi:

Insert texnologiyasi - bu metod o‘quvchilarga matn bilan faol ishlash imkonini beradi. Dars davomida ular matndan olgan ma’lumotlarini belgilash orqali tahlil qiladi: “✓ – men buni bilaman”, “+ – men uchun yangilik”, “– men bunga qarshiman”, “? – bu menga tushunarsiz” kabi belgilar bilan o‘z fikrini ifodalaydi. Bu usul o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga, matn mazmunini anglashga va fikr almashishga undaydi.

Venn diagrammasi - ushbu grafik usul yordamida o‘quvchilar Avloniy ilgari surgan axloqiy-ahlokiy g‘oyalarni zamonaviy jamiyatdagi qadriyatlar bilan taqqoslaydi. Masalan, “Halollik”, “Odob”, “Mehnat” kabi tushunchalar asosida o‘tmish va bugunni solishtirish orqali tarixiylik va dolzarblik o‘rtasida bog‘liqlik hosil qilinadi. Bu esa tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

Kichik guruhlarda ishlash - asarni bob-bob qilib ajratgan holda guruhlar orasida taqsimlash va har bir guruhga o‘ziga tegishli bo‘limni o‘rganib, xulosa chiqarish topshiriladi. Guruhlar faoliyatining yakunida ular o‘z boblarini sinfda taqdim etadilar. Bu usul orqali o‘quvchilarda jamoaviy fikrlash, mas’uliyat, taqdimot ko‘nikmalari va hamkorlik muhiti shakllanadi.

Rol o‘ynash (dramatizatsiya) - “Axloqli bola”, “Ilmsiz kishining holati”, “Odotsizlik oqibatlarini” kabi holatlar sahnalashtiriladi. O‘quvchilar asardagi axloqiy g‘oyalarni o‘z harakati orqali namoyon qiladi. Bu metod o‘quvchida obrazga kirish, empatiya his qilish, tanqidiy yondashuv va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Ayniqsa, bu usul darslarni jonlantiradi, hayotiyashtiradi va o‘quvchilarni estetik ruhda tarbiyalaydi.

Ushbu metodlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning axloqiy ongini shakllantirishda, milliy qadriyatlarni anglashda va mustaqil fikr yuritishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, darsda o‘qituvchi faollik markazida emas, balki yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan biridir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zamon talabi hisoblanadi. Xususan, adabiy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy merosni,

jumladan, Abdulla Avloniy ijodini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. An’anaviy usullar bilan bir qatorda, quyidagi texnologik yondashuvlar darslarni interaktiv va o‘quvchi uchun qiziqarli qilishga xizmat qiladi:

Multimedia taqdimotlar:

Avloniy hayoti, ijtimoiy faoliyati va asarlari haqida slaydli taqdimotlar tuzish orqali o‘quvchilarda vizual xotira shakllanadi. Bu jarayonda PowerPoint, Canva, Prezi kabi vositalardan foydalanish mumkin.

Video va audio materiallar:

Adib hayoti haqidagi hujjatli filmlar, uning asarlaridan o‘qilgan she’rlar yoki drammatizatsiyalangan sahnalarni dars jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarda eshitish orqali idrok etish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu usul, ayniqsa, kinestetik va eshituvchilar uchun samaralidir.

Raqamli testlar va onlayn viktorinalar:

Dars oxirida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va mustahkamlash maqsadida Kahoot, Quizizz, Google Forms kabi platformalarda tezkor testlar o‘tkazish mumkin. Bunday usullar natijalarning avtomatik tahlil qilinishiga ham imkon beradi.

Elektron darsliklar va mobil ilovalar:

Abdulla Avloniy asarlarini elektron formatda, PDF yoki mobil ilova ko‘rinishida taqdim etish orqali o‘quvchilar o‘z smartfonlari yoki planshetlaridan foydalanib mustaqil o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularda o‘zlashtirish tezligini oshiradi va darsdan tashqari o‘qishga rag‘bat uyg‘otadi.

Virtual ekspeditsiyalar va interaktiv xaritalar:

Avloniy hayoti bilan bog‘liq muhim joylar (masalan, tug‘ilgan joyi, faoliyat yuritgan maskanlar)ni virtual tarzda o‘rganish, xaritalar orqali ko‘rsatish o‘quvchilarda tarixiy-tarjimai holiy kontekstni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar nafaqat o‘quvchilarni faol jalb etadi, balki ularning mustaqil fikrlash, axborot izlash, muloqotga kirishish, axborotlarni saralash kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa Avloniy ijodini faqatgina ma’lumot emas, balki hayotiy saboq sifatida o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy ijodi – xalqimiz ma’naviy hayotining, adabiy-madaniy taraqqiyotining bebaho boyligidir. Uning asarlarini o‘qitish nafaqat adabiy bilim berish, balki shaxsiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Dars jarayonlarida Avloniy merosini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va texnologiyalar

asosida chuqur tahlil qilish – o‘quvchining dunyoqarashi, tafakkuri va tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu boisdan, maktab adabiy ta’limida Abdulla Avloniy ijodini o‘rganishga yangicha nazar bilan yondashish, darslarni milliy, tarbiyaviy, estetik jihatdan boyitish muhim dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.-160-b;
2. Abdulahatov N., Abubakirova O. “Allomalar to‘g‘risidagi asotirlar” F.: 2012;
3. Barakayev R. “Abdulla Avloniy va bolalar adabiyoti”. T.:Fan, 2004;
4. Xo‘jayeva D. Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta’limi, 2003, 3-son.-B.71.
5. Kadirova M., The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning. current research journal of philological sciences, 2022, 3(03), 1–[THE NEED FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN DISTANCE LEARNING | CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES \(inlibrary.uz\)](#)
6. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
7. Kadirova M.N. Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. International journal of artificial intelligence. ISSN: 2692-515X, [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](#)
8. 10. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
9. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
10. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
11. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma’rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
12. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
13. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
14. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.